

Xalqaro aloqalar va akademik mobillik bo'yicha xizmat ko'rsatish sektori menejerlarining xizmat vazifalari

- o'qish joyidan ingliz tilida ma'lumotnoma berish;
- turli xalqaro grantlar va akademik mobillik dasturlari bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish;
- o'qishga qabul qilingan xorijiy talabalarni elektron tizimda ro'yxatga olish va fanlarga biriktirish;
- xorijiy oliygozlarda tahsil olishda konsultatsiya berish;
- xorijiy talabalar uchun viza xizmatlarini amalga oshirish;
- xorijiy talabalarga to'lov-shartnomalarini taqdim etish;
- xorijiy talabalarni O'zbekiston Respublikasida vaqtinchalik ro'yxatga qo'yish xizmatlarini amalga oshirish;
- xorijiy talabalarni o'qishga qabul qilish bo'yicha konsultatsiya berish, ariza va talab etiladigan hujjatlarni ko'rib chiqish uchun qabul qilish;
- xorijlik talabalarga oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonlari haqida ma'lumot berish;
- qo'shma ta'lim dasturlari haqida ma'lumot berish va talabalar orasida targ'ibot qilish;
- xorijda o'qish uchun "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiya tanlovi va xorijiy e'lonlar haqida ma'lumot berish;
- xalqaro reytinglar (QS, THE, Green Metric)da o'rin egallagan oliy ta'lim muassasalari to'g'risida talabalarga ma'lumot berish;
- xalqaro forumlarda imzolangan bitimlar va bayonlar haqida talabalarga ma'lumot berish;
- xorijiy tillarni o'rganish kurslari haqida ma'lumot berish.